

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI

**S. Safarov**

Toshkent davlat texnika universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, turizm sohasida olib borilgan islohotlar, qonunchilik bazasining takomillashuvi, infratuzilmaning rivojlanishi hamda ichki va tashqi turizmning kengayishi yoritiladi. Shuningdek, Prezident qarorlari va milliy strategiyalar asosida turizm sohasidagi bosqichma-bosqich taraqqiyot tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, mustaqillik, iqtisodiy islohotlar, madaniy meros, infratuzilma, ichki turizm, tashqi turizm, ziyorat turizmi.

O‘zbekiston — Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, boy tarixiy merosi, qadimiy shaharlari va madaniy yodgorliklari bilan mashhur yurt hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm sohasiga alohida e‘tibor qaratilib, bu yo‘nalish milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlar nafaqat mamlakatimiz, balki butun insoniyat tamadduni, ma‘naviyati va qadimiy sivilizatsiyalarining markazlari sifatida xalqaro miqyosda e‘tirof etilmoqda. Bu shaharlardagi tarixiy obidalar, me‘moriy inshootlar va ziyoratgohlar nafaqat ilmiy va madaniy ahamiyatga, balki katta turistik potensialga ham ega.

O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan ko‘plab turistik yo‘nalishlar — tarixiy, arxeologik, tabiiy rekreatsion, madaniy va ziyorat turizmi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa, o‘z navbatida, barcha viloyat va hududlarda mavjud turistik imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, infratuzilmani takomillashtirish, zamonaviy xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish va aniq turistik marshrutlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos tabiiy, tarixiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun jozibador turistik paketlarni yaratish zarur.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, XXI asrda turizm sohasi jahon miqyosida eng daromadli tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda u global darajada avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sanoatidan keyingi uchinchi o‘rinda turibdi. Buning sababi — turizm yuqori texnologik yoki ilmiy-investitsion xarajatlarni talab qilmasdan, tez rivojlana oladigan va boshqa sohalar bilan bevosita bog‘liq tarzda taraqqiy etadigan soha sanaladi. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish, transport, savdo, mehmonxona biznesi,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi yo‘nalishlar turizm bilan uzviy aloqador bo‘lib, ularning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida ko‘plab muqaddas qadamjolar, tarixiy yodgorliklar, allomalarimiz maqbaralari qayta kashf etilib, restavratsiya qilindi. Misol uchun, Samarqand viloyatining Tayloq tumanida Xo‘ja Darun, Urgut tumanida Imom A‘zam, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida Mir Sayyid Xalil, G‘allaorol tumanida esa Sadir Vag‘qos kabi ulug‘ siymolarning ziyoratgohlari yangidan tiklandi, ularda zamonaviy majmualar qad rostladi. Biroq, bu muqaddas maskanlarning aksariyati hali to‘liq turistik marshrutlarga kiritilmagan, ularni asosan mahalliy aholi ziyorat qiladi xolos. Shu bois, bu obidalarni keng targ‘ib qilish, ularning tarixini aholiga va xorijiy sayyohlarga yetkazish, ular asosida tematik turizm dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda Andijon shahri va viloyatida ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar barpo etildi, mavjudlari esa kapital ta‘mirdan chiqarildi. Bu esa viloyatni tashrif buyuruvchi mehmonlar uchun yanada qulay maskanga aylantirmoqda. Aytish joizki, mamlakatimizning barcha hududlarida shunday salohiyat mavjud bo‘lib, ularni kompleks o‘rganish va iqtisodiy jihatdan baholash orqali O‘zbekistonni dunyodagi eng jozibador turistik yo‘nalishlardan biriga aylantirish mumkin.

O‘zbekistonning turistik salohiyatini to‘liq namoyon etish uchun har bir tarixiy obida, madaniy meros yodgorligi va tabiiy maskanlarni chuqur ilmiy o‘rganish, infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy turizm xizmatlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Shu orqali nafaqat milliy iqtisodiyotga salmoqli hissa qo‘shiladi, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi turistik brendi ham yuksaladi.

Mustaqillik mamlakat tarixida yangi davrni boshlab berdi: milliy qadriyatlar, tarixiy meros va tabiiy resurslarga asoslangan holda turizm salohiyatini ochib berish imkoniyati yaratildi. Turizm, iqtisodiy o‘shning muhim omili sifatida e‘tirof etilib, unga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarala boshlandi.

1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etildi. O‘sha davrda asosiy e‘tibor xorijiy sayyohlarni jalb etish, tarixiy shaharlardagi obidalarni ta‘mirlash va targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yishga qaratildi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi obidalar UNESCO ro‘yxatiga kiritildi.

O‘zbekiston islom olamidagi muqaddas ziyorat maskanlari bo‘yicha mashhur davlatlardan biriga aylandi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Termiziy, Zangiota va boshqa manzillar xorijiy ziyoratchilarni jalb etishga xizmat qilmoqda. Shu asosda “ziyosat turizmi strategiyasi” ishlab chiqildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizdagi tarixiy va diniy ahamiyatga ega maskanlarga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Ayni paytda diqqatga sazovor joylarga tashrif buyuruvchilar soni bir necha barobarga ortdi. Bu esa nafaqat ichki turizmning rivojlanishiga, balki milliy ma’naviyatni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Har bir viloyat, har bir tuman o‘ziga xos tarixiy, madaniy va tabiiy merosga ega bo‘lib, ularni o‘rganish, asrash va keng jamoatchilikka yetkazish muhim vazifalardan biridir.

Shunday muqaddas maskanlardan biri — Hazrati Dovud g‘ori bo‘lib, u Samarqand shahridan taxminan 40 kilometr uzoqlikda joylashgan Oqsoy qishlog‘ida joylashgan. Bu ziyorat maskani — qadimiy tarix, afsonaviy voqealar va diniy e’tiqodlar bilan chambarchas bog‘langan noyob arxeologik yodgorlik, ayni paytda tabiatning betakror mo‘jizasi hisoblanadi.

Hazrat Dovud g‘ori ayni paytda nafaqat tarixiy yoki diniy yodgorlik, balki xalqimiz orasida muqaddas qadamjo sifatida tan olingan. Bu g‘or har kuni o‘nlab, ba’zida yuzlab ziyoratchilarni o‘ziga tortadi. Ziyoratchilar bu yerga faqatgina diniy sabablarga ko‘ra emas, balki tarix, afsona va tabiat bilan uyg‘unlashgan noyob muhitni his qilish uchun ham keladilar.

Shuningdek, ushbu qadamjo atrofi ham yildan-yilga obodonlashtirilib, mehmonlar uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Yo‘llar ta’mirlanmoqda, zamonaviy xizmat ko‘rsatish punktlari barpo etilmoqda, hudud ekologik muhofaza ostida saqlanmoqda. Bu kabi tadbirlar esa hududda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga, mahalliy iqtisodiyotning faollashuviga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar va tabiat in’omlari bo‘lgan maskanlarga bo‘lgan qiziqish ortdi. Hazrati Dovud g‘ori bunga yorqin misollardan biridir. U nafaqat diniy va tarixiy yodgorlik, balki o‘zida ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va ekologik go‘zallikni jamlagan betakror maskan hisoblanadi. Bunday joylarni targ‘ib qilish, ular haqida jamoatchilikni keng xabardor qilish milliy turizmni yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotida tub burilishlar yuz berdi. Ayniqsa, qadimiy urf-odatlarimiz, milliy qadriyat va an’analarimiz qayta tiklanib, jamiyat hayotida chuqur ildiz otishga erishdi. Asrlar davomida unutilib borayotgan ko‘plab ma’naviy meroslarimizga yangicha yondashuv asosida e’tibor qaratilib, ularni saqlash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bu davrda yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Ularning jismoniy va intellektual salohiyatini yuksaltirish maqsadida yuzlab zamonaviy sport majmualari,

kutubxonalar, madaniyat markazlari barpo etildi. Shu bilan birga, yangi ish o‘rinlari tashkil qilinib, yoshlarning bandligini ta‘minlash, kasb-hunar o‘rganishlari uchun zamonaviy ta‘lim va ishlab chiqarish infratuzilmalari yaratildi.

Ichki turizmning rivojlanishi ham mustaqillik davrining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Mamlakatimiz hududidagi diqqatga sazovor joylarga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi, tarixiy obidalarni saqlab qolish, ularni restavratsiya qilish va yangidan tiklash borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. O‘z navbatida, moddiy-madaniy meros obyektlarini asrash, tarixiy binolar va inshootlarni zamonaviy ko‘rinishda ta‘mirlash hamda ularning atrofini obodonlashtirish ishlari jadal sur‘atlarda olib borildi.

O‘zbekistonning har bir hududida, har bir mintaqasida bunday ijobiy jarayonlar kechmoqda. Tarixiy obidalarni asrab-avaylash, ularni xalqimiz va kelajak avlod uchun saqlab qolish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar — mamlakatimiz taraqqiyotining yorqin ko‘rsatkichidir. Zero, o‘z o‘tmishini qadrlagan xalqgina mustahkam va nurli kelajak sari dadil odimlashi mumkin.

Shuni ham aytish joizki, O‘zbekistonda mintaqaviy turizm sohasini jadal rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turizmni rivojlantirishda mintaqaviy yondashuvga asoslangan strategiyalar ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda har bir hududning o‘ziga xos tabiiy, tarixiy, madaniy va iqtisodiy xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularni to‘liq hisobga olgan holda turizm siyosatini yuritish zarurdir. Zero, mintaqalarda turizmni rivojlantirish faqatgina mahalliy darajada emas, balki butun mamlakat turizm infratuzilmasining yuksalishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir mintaqaning turistik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun alohida strategik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim. Bunga misol tariqasida, turistik firmalarning hududiy joylashuvi, ularning faoliyat samaradorligi va bu jarayonning tizimli monitoringini olib borish mumkin. Bu esa ilmiy-tadqiqotlar, statistik tahlillar va innovatsion metodikalar asosida yo‘lga qo‘yilishi kerak.

Hozirgi global tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, turizm nafaqat alohida davlatlarning, balki butun mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omilga aylanmoqda. Bu soha aholining sayohat, dam olish, madaniy merosni o‘rganish va yangi tajribalarni qo‘lga kiritish kabi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilib, milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Turizmning barqaror rivojlanishi orqali nafaqat turistik tashkilotlar, balki unga bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan boshqa tarmoqlar — transport, savdo, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalar ham rivojlanadi. Bu esa iqtisodiyotda kuchli

multiplikativ ta'sirni yuzaga keltiradi. Shu bois, turizm sohasi xalq xo'jaligi kompleksining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'rilmogda.

Bundan tashqari, turizm insonlarning madaniy, estetik, ruhiy va jismoniy ehtiyojlarini qondirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Texnologik taraqqiyot, ish samaradorligining oshishi va hayot sur'atining tezlashuvi natijasida yuzaga keladigan ruhiy bosim va stresslarni kamaytirishda sayohat va hordiq chiqarish muhim rol o'ynaydi. Bu esa turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham dolzarb soha ekanligini isbotlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekistonda mintaqaviy turizmni rivojlantirish — nafaqat hududiy taraqqiyotga, balki umumiy milliy iqtisodiy o'sishga ham kuchli turtki beradi. Shu sababli, mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar, kompleks yondashuv va zamonaviy strategiyalarni joriy etish davr talabiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi o'zgarishlar va tarixiy obidalarni asrash borasidagi sa'y-harakatlar — xalqimizning milliy o'zlikni anglashida, o'z tarixiga bo'lgan hurmatini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu jarayonlar nafaqat o'zimiz uchun, balki butun dunyo sayyohlari uchun ham O'zbekistonni yanada jozibador maskanga aylantirmogda. O'zbekiston mustaqillik yillarida turizm sohasini iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmog'iga aylantira oldi. Soha nafaqat valyuta tushumlari manbai, balki madaniy merosni saqlash, xalqaro aloqalarni kengaytirish va milliy qadriyatlarni targ'ib etishda muhim rol o'ynamoqda. Yaqin yillarda raqamli turizm, "aqlii shaharlar" va barqaror turizm konsepsiyalari asosida turizm sohasi yanada rivojlanishi kutilmogda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova D. B. "O'zbekiston Respublikasida zamonaviy turizm infratuzilmasi shakllanishining yo'nalishlari" // Innovatsion rivojlanish: nazariya va amaliyot ilmiy jurnali, 2023, №2.
2. "Turizm va madaniy meros" jurnali, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi nashri, 2022.
3. To'raqulov O. Sh. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari" // Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy maqolalar to'plami, 2021.
4. Rasulov R. "O'zbekistonda turizm siyosati va uning hududiy rivojlanishdagi o'rni" // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2022, №3.
5. Safarov F. "Ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari" // Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy to'plami, Toshkent, 2022.